

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 49 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISH VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	



QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI

Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich

Qarshi xalqaro universiteti
O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i
haqqulovf1990@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida oliy ta'lim muassasalari va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiya jarayonining hozirgi holati statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda yoshlar bandligi, malaka nomutanosibligi va ta'lim tizimi natijadorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rganiladi. Oliy ta'limning mehnat bozoriga moslashuvchanligini kuchaytirish, amaliy tayyorgarlikni rivojlantirish hamda ish beruvchilar bilan hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari Qashqadaryo viloyatida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonini jadallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, mehnat bozori, integratsiya, malaka nomutanosibligi, yoshlar bandligi, Qashqadaryo.

Abstract. This article analyzes the current state of integration between higher education institutions and the labor market in Kashkadarya region. The study examines youth employment, skill mismatches, and the factors affecting graduate employability. Recommendations are developed to enhance practical training, strengthen cooperation with employers, and improve alignment between education outcomes and labor market requirements. The findings highlight the necessity of accelerating the preparation of highly qualified specialists in the region.

Keywords: higher education, labor market, integration, skill mismatch, youth employment, Kashkadarya.

Аннотация. В статье анализируется текущее состояние интеграции высших учебных заведений и рынка труда Кашкадарьинской области на основе статистических данных. Изучаются занятость молодежи, несоответствие квалификаций и факторы, влияющие на трудоустройство выпускников. Разработаны рекомендации по усилению практической подготовки и сотрудничества с работодателями. Результаты показывают необходимость ускоренного формирования высококвалифицированных кадров в регионе.

Ключевые слова: высшее образование, рынок труда, интеграция, несоответствие квалификаций, занятость молодежи, Кашкадарья.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining tezkor transformatsiyasi oliy ta'lim tizimiga yangi imkoniyatlar va metodik yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda. Raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishda yuqori malakali, innovatsion fikrlovchi kadrlar tayyorlash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois O'zbekiston davlat siyosatida oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yangi bosqichga ko'tarilib, tizimli yondashuvlar bilan boyitilmoqda.

Qashqadaryo viloyati — mamlakatimizning sanoat va energetika markazlaridan biri sifatida, metallurgiya, gaz-kimyo, neftni qayta ishlash, qurilish hamda xizmat ko'rsatish sohalarida innovatsion loyihalar amalga oshirilayotgan hudud hisoblanadi. Texnologik yangilanish va hududiy investitsiya dasturlarining kengayishi natijasida muhandislik, texnologiya, iqtisodiyot va axborot texnologiyalari yo'nalishlarida malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortib bormoqda.

2024-yil yakunlari bo'yicha Qashqadaryo viloyatida yoshlar bandligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar natijasida mehnat bozorining barqarorligi mustahkamlanmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida qamrov darajasining ortishi kadrlar tayyorlash jarayonining sifat jihatidan yangi bosqichga chiqishiga zamin yaratmoqda. Malaka mosligi 60 foiz darajasida bo'lishi esa, ta'lim tizimi bilan real sektor o'rtasidagi integratsiyani yanada kuchaytirish uchun rivojlanish salohiyatini ko'rsatmoqda.

Maqolada ushbu jarayonlarni chuqurlashtirish maqsadida quyidagi ilmiy vazifalar belgilangan: oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasining amaldagi holatini statistik tahlil qilish, kadrlar tayyorlash tizimini mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirish hamda ilg'or xalqaro tajriba asosida innovatsion metodik yechimlar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim va mehnat bozori sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish masalalari bo'yicha J. M. Keyns, V. I. Strajev, V. I. Marsinkevich, I. V. Soboleva, S. A. Dyatlov, N. P. Litvinova, V. V. Sheremetova, E. Makron, L. I. Yakobson, T. I. Shamov, P. I. Tretyakov, A. N. Boyeva, V. V. Gluxov, A. N. Asaul va B. M. Kaparov kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar va olib bormoqdalar.

Ushbu yo'nalishdagi masalalarni mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan S. S. G'ulomov, Q. X. Abdurahmonov, A. Sh. Bekmurodov, M. Sh. Sharifxo'jayev, Y. A. Abdullayev, B. Y. Xodiyev, D. Nabiyeu, R. K. Alimov, B. A. Begalov, D. B. Grigorovich, M. X. Saidov, T. Z. Teshaboyev, Sh. Qurbonov, E. Seytxalilov, H. P. Abulqosimov, A. S. Kucharov, B. Ruzmetov va O. S. Qahhorovlar ham o'rganib kelmoqdalar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot Qashqadaryo viloyatida oliy ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiya darajasini baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda xorijiy tajriba asosida takliflar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyatidagi oliy ta'lim muassasalari va mehnat bozori tizimi ishtirokchilari faoliyati olingan. Predmet sifatida esa bitiruvchilarning bandligi, amaliy tayyorgarligi va kompetensiyalarining mehnat bozori talablariga mosligi belgilangan.

Tadqiqotda 2020–2024-yillar uchun O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi, Mehnat va bandlik vazirligi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi davlat texnika universiteti ma'lumotlari, ish beruvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar hamda OECD, World Bank va ILO ma'lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omillaridan biri — ta'limning miqdor va sifat jihatdan izchil rivojlanishidir. Bugungi kunda bu jarayon mehnat bozorining tez o'zgaruvchan dinamikasiga moslashib bormoqda, chunki ta'lim tizimining o'sish sur'atlariga ichki va tashqi omillar faol ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu omillar orasida ham tizimni rag'batlantiruvchi, ham uni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiruvchi jihatlar mavjud.

Oliy ta'lim va mehnat bozorining barqaror integratsiyasini ta'minlaydigan omillar qatoriga quyidagilar kiradi: davlatning oliy ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan makroiqtisodiy siyosati; aholining oliy ta'limga nisbatan ortib borayotgan ishonchi; oliy ta'lim muassasalari soni va sifati o'sishi, professor-o'qituvchilarning kompetensiyasi va ilmiy salohiyatining yuksalishi; oliy ta'limda boshqaruv va moliyaviy mustaqillikning kengayishi; pedagog mehnatini rag'batlantirish tizimining bosqichma-bosqich takomillashuvi; xorijiy professor-o'qituvchilarning jalb etilishi hamda mahalliy kadrlarning xorijda malaka oshirish imkoniyatlarining kengayib borishi.

Shuningdek, ayrim sohalarida aniqlangan muammolar ta'lim tizimini takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Jumladan, oliy ta'limda baynalminalashuv jarayonlari milliy kadrlar salohiyatini yangi sifat bosqichiga olib chiqishni talab etmoqda; xorijiy tajriba asosida ta'lim marketingi metodologiyasini joriy etish zaruriyati ortib bormoqda; ixtisoslashuv jarayonlarini chuqurlashtirish, ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabni tizimli tartibga solish, qonunchilik ijrosini yanada samarali amalga oshirish, moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish kabi yo'nalishlar ustida ishlanmoqda.

Shu bilan birga, professor-o'qituvchilar va xodimlarni moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, bitiruvchilarning mehnat bozoriga mos taqsimlanishini ta'minlash, ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasida shaffoflikni kuchaytirish, amaliyot dasturlarining sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish, korrupsiyaga qarshi tizimni mustahkamlash hamda innovatsion va tijoratlashtirish jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar natijasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Tadqiqot davomida Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan davlat oliy ta'lim muassasalari — Qarshi davlat universiteti, Qarshi davlat texnika universiteti, Shahrisabz davlat pedagogika instituti hamda nodavlat oliy ta'lim muassasalari — Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi innovatsion ta'lim universiteti, Qarshi xalqaro universiteti, Turon universiteti va Xalqaro innovatsion universiteti faoliyati o'rganildi. Ularning tajribasi asosida oliy ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiyani yanada samarali yo'lga qo'yish bo'yicha istiqbolli metodik yo'nalishlar shakllantirildi.



Olib borilgan tahlillar natijalariga ko'ra, Qashqadaryo mintaqasida faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari soni 2018/2019-o'quv yilida 3 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023/2024-o'quv yilida bu ko'rsatkich 12 taga yetdi, ya'ni 4 martaga oshdi. Ularda ta'lim olayotgan talabalar soni esa 4,8 martaga ko'paydi.

Shuningdek, Qashqadaryo mintaqasida OTMlarning kunduzgi bo'limlarida tahsil olayotgan talabalar soni 2018/2019-o'quv yilida 18,4 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2023/2024-o'quv yilida bu ko'rsatkich 87,6 ming nafarga yetdi, ya'ni shu davr mobaynida qariyb 1,5 martaga oshdi. Mintaqadagi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat va magistratura mutaxassisliklariga qabul qilingan talabalar soni 2018/2019-o'quv yilida 5,2 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2023/2024-o'quv yilida bu ko'rsatkich 40,9 ming nafarga yetdi, ya'ni qariyb 8 martaga oshgan.

Hozirgi kunda har bir mamlakat ijtimoiy rivojlanish tamoyillari zamonaviy kasbiy bilimga ega bo'lish shart-sharoitlarini yaratishning yangi bosqichiga o'tishni talab etmoqda. Shu sababli, keyingi yillarda Qashqadaryo mintaqasida OTMlar soni doimiy o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda — 2023/2024-o'quv yilida ularning soni 2018/2019-o'quv yiliga nisbatan qariyb 4 martaga ortgan. Qashqadaryo mintaqasining Shahrisabz shahrida 3 ta OTM faoliyat yuritmoqda, ushbu hududda tahsil olayotgan talabalar soni esa yildan-yilga ortib bormoqda (1-jadval).

1-jadval. Qashqadaryo mintaqasida joylashgan oliy ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari¹

№	Ko'rsatkichlar	Yillar					
		2018/ 2019	2019/ 2020	2020/ 2021	2021/ 2022	2022/ 2023	2023/ 2024
1.	Oliy ta'lim muassasalari soni, birlik	3	6	6	6	9	12
1.1.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	-	200,0	100,0	100,0	150,0	133,3
2.	Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni, ming kishi	18,4	22,5	27,9	44,2	57,4	87,6
2.1.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	-	122,3	124,0	158,4	129,9	152,6
3.	Oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga qabul qilingan talabalar soni, ming kishi	5,1	5,9	7,5	10,4	14,2	40,9
3.1.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	-	115,7	127,1	138,7	136,5	280,3
4.	Oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga qabul qilingan talabalar soni, ming kishi	0,1	0,2	0,4	0,6	0,1	0,6
4.1.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	-	200,0	200,0	150,2	16,7	600,0

Oliy ta'lim muassasalari sonining bunday sur'atlarda o'sishi Qashqadaryo mintaqasida ko'plab subyektlarning oliy ma'lumotli mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda, shuningdek iqtisodiyotda band bo'lganlar tarkibida oliy ma'lumotli kadrlar ulushini ko'paytirishda muhim bosqich bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Kelajakda Qashqadaryo mintaqasida oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasini rivojlantirish bo'yicha asosiy vazifalar sifatida ta'lim kreditlarini berish tizimini joriy etish, yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan kelgusi talabni chuqur o'rganish, mehnat bozori monitoringini yo'lga qo'yish hamda mintaqadagi oliy ta'lim muassasalarini innovatsion faoliyatga rag'batlantirishning samarali tizimini shakllantirish zarur. Iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini faol takror ishlab chiqarish manbaiga aylantirish uchun yosh mutaxassislarning keng ishtirokini ta'minlash muhim omil hisoblanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shunday ekan, Qashqadaryo mintaqasi bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan talabalar sonining 2018/2019 va 2023/2024-o'quv yillari davomida ortib borishi, bir tomondan, kelgusida bitiruvchilar sonining keskin oshishiga olib keladi, boshqa tomondan esa mehnat bozorida oliy ma'lumotli mutaxassislar o'rtasida raqobat kuchayishiga sabab bo'ladi. Bizning nazarimizda, oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi sohasida kuzatilayotgan ushbu jarayon kelajakda yanada keskinlashib boradi.

Oliy ta'lim va mehnat bozori munosabatlarining rivojlanishida asosiy omillardan biri — oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining faoliyati hisoblanadi. Shu sababli, Qashqadaryo mintaqasida joylashgan OTMlardagi professor-o'qituvchilar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar bilan ta'minlanganlik darajasining oshib borishi muhim ahamiyatga ega (2-jadval).

2-jadval. Qashqadaryo mintaqasida joylashgan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari²

№	Ko'rsatkichlar	Yillar					
		2018/ 2019	2019/ 2020	2020/ 2021	2021/ 2022	2022/ 2023	2023/ 2024
1.	Oliy ta'lim muassasalari soni, birlik	3	6	6	6	9	12
1.1.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	100,0	200,0	100,0	100,0	150,0	133,3
2.	Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni, ming kishi	18,4	22,5	27,9	44,2	57,4	87,6
2.1.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	100,0	122,3	124,0	158,4	129,9	152,6
3.	Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar soni, (o'quv yili boshida), kishi	1196	1404	1455	1797	2031	2923
3.1.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	100,0	117,4	103,6	123,5	113,0	244,4
4.	Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar soni, kishi	322	340	384	458	542	604
4.1.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	100	105,6	112,9	119,3	118,3	186,6

Tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo mintaqasida oliy ta'lim tizimi so'nggi yillarda jadal rivojlanish bosqichiga kirgan. 2018/2019-o'quv yilida 1196 nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2023/2024-o'quv yilida ularning soni 2923 nafarga yetib, 2,4 martaga o'sdi. Bu ko'rsatkich hududda ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyatining barqaror oshib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, 604 nafar professor-o'qituvchining ilmiy darajaga ega ekanligi ilmiy salohiyatni yanada kengaytirish istiqbollarini ko'rsatadi. Qarshi davlat universitetida bu ko'rsatkich 43,8 foizni, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida esa 41,3 foizni tashkil etayotgani hududdagi ilmiy kadrlar tayyorlash tizimining yuqori potensialga ega ekanidan dalolat beradi.

Talabalarning ta'lim sifati ko'p jihatdan texnologik infratuzilmaning rivojlanishiga ham bog'liq. So'nggi yillarda Qashqadaryo mintaqasida oliy ta'lim muassasalarining kompyuter texnikalari bilan ta'minlanish darajasi sezilarli darajada yaxshilangan. Xususan, 2023-yilda kompyuter xonalari soni 2018-yilga nisbatan 161,8 foizga, kompyuterlar soni 138,3 foizga, informatika va kompyuter texnologiyalari o'qituvchilari soni esa 121 foizga ortgan. Natijada o'rtacha bitta oliy ta'lim muassasasiga to'g'ri keladigan kompyuterlar soni 19,7 foizga oshgan.

Mazkur natijalar shuni ko'rsatadiki, OTMlarning soni va miqyosining kengayishiga parallel ravishda ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan yanada samarali ta'minlash bo'yicha imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Ya'ni, mavjud infratuzilma bazasi bosqichma-bosqich mustahkamlanib, raqamli ta'lim muhiti barpo etish uchun keng sharoitlar yaratilmoqda. Kelgusida bu jarayonni tizimli ravishda takomillashtirish, texnologik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda informatika yo'nalishidagi mutaxassislar ulushini ko'paytirish orqali oliy ta'limning raqamli transformatsiyasini yanada jadallashtirish prognoz qilinadi (3-jadval).

2 O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



3-jadval. Qashqadaryo mintaqasida joylashgan oliy ta'lim muassasalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlanganligi³ (o'quv yili boshiga, kishi)

Ko'rsatkichlar	Yillar						2023-2024 o'quv yilida 2018-2019 o'quv yiliga nisbatan o'sish, %
	2018/ 2019	2019/ 2020	2020/ 2021	2021/ 2022	2022/ 2023	2023/ 2024	
Oliy ta'lim muassasalari soni, birlik	3	6	6	6	9	12	400,0
<i>Oliy ta'lim muassasalarida kompyuter xonalari soni, birlik</i>	33	76	86	97	121	122	369,6
Ularda kompyuterlar soni, birlik	22762	37743	31523	35829	42195	51569	226,6
O'rtacha bitta oliy ta'lim muassasasiga to'g'ri keladigan kompyuterlar, birlik	232	317	248	233	220,9	239	103,0
Informatika va kompyuter texnologiyalari o'qituvchilari soni, kishi	1615	1779	1850	1988	2215	2324	143,9
Informatika va kompyuter texnologiyalari o'qituvchilarining umumiy o'qituvchilardagi ulushi, %	6	6	5,8	5,3	5,3	5,6	93,3

Bizningcha, yangi axborot texnologiyalari ko'lamining sezilarli darajada kengayishi ta'lim sohasi rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Bu, avvalo, mintaqadagi ta'lim bozorining intensiv rivojlanishiga olib keldi. Ayniqsa, yangi texnologiyalar asosida ishdan ajralmagan holda, uydan uzoqlashmasdan o'quv markazlarida, uy sharoitida yoki ish joyida ta'lim olish imkoniyatlarining yaratilishi ijobiy natijalar berdi.

Oliy ta'limdan keyingi uzluksiz ta'limning ko'p darajali va egiluvchan tizimini shakllantirish mintaqada oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasini rivojlantirishda muhim ijobiy omil hisoblanadi. Chunki ushbu tizim har bir talabgorga eng yuqori ilmiy darajagacha bosqichma-bosqich ta'lim olish imkoniyatini beradi.

Qashqadaryo mintaqasida oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi holati, unda talab va taklif hajmining o'sish dinamikasi ko'p jihatdan oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar tarkibi, ilmiy darajaga ega o'qituvchilar soni va ulushi bilan belgilanadi. Shu bois, tahlil etilayotgan davr mobaynida ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar soni hamda ularning o'sish dinamikasi o'rganildi.

Mintaqada oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi mexanizmining samaradorligiga erishish iste'molchilarga ham o'quv yurtini, ham ta'lim shaklini (kunduzgi, sirtqi, eksternat, masofaviy va boshqalar) erkin tanlash imkoniyatini kengaytiradi.

Qashqadaryo mintaqasida oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi holati va rivojlanishining kasblar hamda mutaxassisliklar bo'yicha tarkibiy tahlili bu borada jiddiy kamchiliklar va muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Masalan, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida ayrim kasblar va mutaxassisliklarning "moda" tusini olishi ularga bo'lgan talabning asossiz ravishda oshishiga olib kelgan. Bunga iqtisodiyot sohasidagi yo'nalishlar — moliya va kredit, buxgalteriya hisobi, menejment, tijorat, iqtisodiyot va yurisprudensiya mutaxassisliklari misol bo'ladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, O'zbekiston Respublikasining boshqa hududlarida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalarida ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar soni viloyatlar kesimida bir-biridan ancha farq qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan ayrim jihatlar oliy ta'lim tizimini takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilab berdi. Jumladan, ayrim oliy ta'lim muassasalarida turli yo'nalishlarda kadrlar tayyorlanayotgani, tizimda moslashuvchanlik va yangi mutaxassisliklarni o'zlashtirish imkoniyatining kengayib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, mehnat bozorida talab yuqori bo'lmagan mutaxassisliklarning mavjudligi ta'lim yo'nalishlarini qayta optimallashtirish, zamonaviy iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashtirish zaruratini ko'rsatadi. Bu

3 O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

esa oliy ta'lim muassasalariga yangi o'quv dasturlari ishlab chiqish va innovatsion ta'lim yondashuvlarini joriy etish uchun metodik imkoniyatlar yaratadi.

Moliyaviy ta'minot masalasiga kelsak, Qashqadaryo mintaqasida oliy ta'lim muassasalarini budjetdan moliyalashtirish ulushi kamaygani ta'lim tizimida diversifikatsiyalashgan moliyaviy manbalarni shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Hozirgi holat oliy ta'lim muassasalarini grantlar, xalqaro loyihalar, xususi sektor ishtiroki va hamkorlik dasturlari orqali qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etishga undamoqda. Bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar oliy ta'limning iqtisodiy barqarorligini oshirish va pedagogik tarkibning ijtimoiy maqomini yanada mustahkamlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Bitiruvchilarni taqsimlash tizimida ham transformatsion o'zgarishlar uchun sharoitlar yaratilmoqda. An'anaviy taqsimlash mexanizmlarining o'rnini mehnat bozoriga yo'naltirilgan, natijadorlikka asoslangan hamkorlik tizimlari egallamoqda. Bu esa ta'lim muassasalariga bitiruvchilarning bandligi va professional rivojlanishi uchun bevosita mas'uliyatni kuchaytirish imkonini beradi.

Shuningdek, talabalar olayotgan nazariy bilimlarni ishlab chiqarish amaliyoti bilan yanada chuqur integratsiyalash jarayoni bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilmoqda. Ishlab chiqarish korxonalari bilan qo'shma amaliyot dasturlari, "dual ta'lim" modeli hamda "universitet-ish beruvchi" hamkorlik platformalarini joriy etish orqali amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash imkoniyatlari kengaymoqda.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo mintaqasida oliy ta'lim tizimi bo'yicha 10 ming aholiga to'g'ri keladigan bitiruvchilar sonida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bu jarayon hududda ta'lim qamrovining ortib borayotganini va mehnat bozori uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash salohiyatining kengayayotganini anglatadi. Shu asosda, yaqin yillarda ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi uyg'unlik yanada mustahkamlanishi prognoz qilinadi (4-jadval).

4-jadval. Qashqadaryo mintaqasida ta'lim sohalari bo'yicha 10000 aholiga to'g'ri keladigan oliy ta'lim muassasalarini bitirgan mutaxassislar⁴ (o'quv yili boshiga, ming kishi)

Ko'rsatkichlar	Yillar						2018-2023-y.y. o'sish, %
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
Gumanitar soha	9,0	8,5	8	12	12,4	18,5	205,6
Ijtimoiy soha	0,2	0,2	0,3	0,5	1,1	1,5	750,0
Iqtisod	2,0	2,0	1,5	2,0	2,4	3,9	195,0
Huquq	0,3	0,2	0,2	0,5	0,6	0,6	200,0
Ishlab chiqarish va texnik soha	5,8	6,0	6	7	7,9	13,2	227,6
Qishloq va suv xo'jaligi	1,5	1,7	2	2	1,5	1,6	106,7
Sog'liqni saqlash	1,0	1,6	1	1	1,6	2	200,0
Xizmatlar sohasi	0,8	0,9	1	1	1,3	2,9	362,5
Jami	20,6	21,1	21	25	28,8	44,2	214,6

Statistik ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, Qashqadaryo mintaqasida gumanitar (120%) va iqtisod (90%) yo'nalishlarida kamayish tendensiyasi kuzatilgan bo'lsa-da, ijtimoiy (2,5 martaga), huquq (167%), ishlab chiqarish va texnik (134%), qishloq va suv xo'jaligi (142%) hamda xizmatlar (125%) sohalarida o'sish dinamikasi mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi barqaror rivojlanish bosqichiga kirgan va bu yo'nalishda miqdoriy o'sish sezilarli natijalarni bermoqda. Xususan, 2018–2024-yillar oralig'ida oliy ta'lim muassasalari soni 3 tadan 12 tagacha oshib, 400 foizlik o'sish qayd etildi. Talabalar soni 18,4 mingdan 87,6 ming nafarga yetib, 375 foizga o'sdi. Bitiruvchilar bandligi ham ijobiy dinamikani namoyon etmoqda, bu esa ta'lim tizimi mehnat bozori talablariga bosqichma-bosqich yaqinlashib borayotganini ko'rsatadi.

Sifat jihatidan olib qaraganda, tizimda rivojlanish uchun keng metodik imkoniyatlar mavjud. Avvalo, ta'lim dasturlarini ishlab chiqarish amaliyoti bilan uyg'unlashtirish yo'nalishida yangi integratsion modellar joriy etish zarurati paydo bo'lmoqda. Bu jarayon ta'limning amaliy ahamiyatini oshirish, zamonaviy kasbiy

4 O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



kompetensiyalarni shakllantirish hamda “dual ta’lim” mexanizmlarini kengaytirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Ayrim yo’nalishlarda mutaxassislar sonining ortishi esa ta’lim tizimida kasbiy diversifikatsiyani chuqurlashtirish, yangi va istiqbolli sohalar — raqamli texnologiyalar, yashil iqtisodiyot, xizmatlar va IT yo’nalishlari bo’yicha kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko’rsatadi.

Hududlar kesimida professor-o’qituvchilar ilmiy salohiyati farqlanayotgani esa ilmiy kadrlar salohiyatini oshirish bo’yicha manzilli dasturlarni ishlab chiqish va tajriba almashinuvini faollashtirish uchun asos bo’ladi. Shu bilan birga, texnologik ta’minot sohasida kuzatilayotgan o’zgarishlar OTMlarning o’sish sur’atiga mos ravishda raqamli infratuzilmani yanada kengaytirish istiqbollarini ochmoqda.

Bitiruvchilarni taqsimlash va bandlik monitoringi tizimini takomillashtirish bo’yicha olib borilayotgan ishlar esa ta’lim jarayonining natijadorligini oshirishga, mehnat bozori ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, Qashqadaryo viloyatida ta’lim tizimi va mehnat bozori o’rtasida kompetensiyalar uyg’unligini ta’minlash yo’lida sezilarli ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Yaqin yillarda bu jarayonni metodik yondashuvlar, tahliliy rejalashtirish va hamkorlik mexanizmlarini kengaytirish orqali yanada mustahkamlash prognoz qilinadi.

Takliflar:

1. “Dual ta’lim klasterlari”ni yaratish — gaz-kimyo, energetika, transport va IT yo’nalishlarida OTM + Ish beruvchi + Talaba o’rtasida uch tomonlama shartnomalar tuzishni jadallashtirish.
2. OTMlar o’quv rejalari uchun “Skill-mapping” tizimini joriy etish — mehnat bozori kompetensiya xaritasi asosida 60% amaliy modullar, 20% ishlab chiqarish loyihalari bilan bog’langan dasturlar yaratish.
3. Bandlik monitoringi uchun yagona raqamli platforma yaratish — bitiruvchilarning ishga joylashishini 1, 3 va 5 yillik kesimlarda kuzatish, OTM reytingini bandlik natijasi asosida belgilash.
4. Ilmiy salohiyatni oshirish bo’yicha differensial moliyalashtirish tizimini joriy etish — doktorantlar ulushi, ilmiy maqolalar soni va sanoat uchun tadqiqot grantlari bilan bog’lash.
5. Ishlab chiqarish amaliyotini rag’batlantirish mexanizmini joriy etish — talabaga maosh, ish beruvchiga soliq imtiyozlari berish hamda amaliyot natijalarini OTM va ish beruvchi reytingiga ta’sir etuvchi omil sifatida hisobga olish.
6. Hududiy “Kasblar prognozi hisobotlari”ni har yili e’lon qilish — talabi yuqori yo’nalishlarni kengaytirish, past talabli mutaxassisliklarni qisqartirish.
7. Professional karyera markazlari faoliyatini kuchaytirish — karyera trenerlari, ish beruvchilar bilan muntazam uchrashuvlar va HR-akseleratsiya dasturlarini yo’lga qo’yish.
8. Innovatsion ta’lim ekotizimini shakllantirish — startup-inkubatorlar, texnoparklar va OTM kampuslari o’rtasidagi integratsiyani kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdurahmonov, Q. H. (2021). *Oliy ta’lim va mehnat bozori integratsiyasi masalalari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Becker, G. S. (1993). *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis*. University of Chicago Press.
3. Gulomov, S. S., & Sharifxo’jayev, M. Sh. (2020). *Mehnat bozori iqtisodiyoti*. Toshkent: Fan.
4. ILO. (2023). *Global Employment Trends for Youth*. Geneva.
5. Marsinkevich, V. I., & Soboleva, I. V. (2020). Integration of higher education and labor market. *Economic Sciences*, 12(3), 44–51.
6. OECD. (2023). *Education at a Glance*. Paris.
7. O’zbekiston Statistika agentligi. (2020–2024). *Bandlik va oliy ta’lim statistik to’plamlari*. Toshkent.
8. Rasulov, D. N. (2022). *Oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash samaradorligi*. Toshkent: IQTISOD.
9. Schwerdt, G., & Zwick, T. (2020). Dual vocational training and labor market outcomes. *Journal of Labor Economics*, 38(1), 127–154.
10. WEF — World Economic Forum. (2023). *Future of Jobs Report*. Geneva.
11. Yakobson, L. I., & Shamov, T. I. (2019). Competency-based educational reforms. *Russian Education Review*, 27(2), 15–29.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100